

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 28 - yanvar

34-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 26-sentyabr kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishining 71-sonli bayonining 12-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 13-yanvardagi 1-1/21-sonli xati hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoni, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining 2023-yil 13-yanvardagi 1-1/21-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining tasarrufida bo'lgan Qorao'zak tumani hududidagi 255,0 gektar yaylov yer maydoni Qorao'zak tumani hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) Qorao'zak tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasi ushbu yer maydoni Qorao'zak tumani hokimligi zaxirasiga qaytarib olinishini inobatga olib, yerdan foydalanuvchining soliq va boshqada to'lovlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish topshirilsin.

5. Qorao‘zak tumani hokimligi zaxiraga qaytarilgan yer uchastkasining yer toifasini o‘zgartirish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni taqdim qilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov